MUMTOZ MATNLARDA FORSIY VA ARABIY O‘ZLASHMALARINING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Safarova Nigora,

Buxoro davlat pedagogika instituti professori.

Najmiddinova Dildorabegim,

Buxoro davlat tibbiyot instituti

o‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnlardan o‘rin olgan fors-arab so‘z larning tuzilishi, tasnifi va tarjimasi qiyosiy o‘rganiladi. Mumtoz adabiyotda ularning qaysi badiiy san’atlar bilan kelishi maqola mazmunini yanada boyitadi.

Annotation: This article comparatively studies the structure, classification, and translation of Persian-Arabic words found in literary texts. The content of the article is further enriched by the study of which literary works they appear in classical literature.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, forsiy so‘z, arabiy so‘z, so‘zlarning tasnifi, badiiy san’atlar, qiyosiy tahlil

Key words: literary text, Persian word, Arabic word, classification of words, fine arts, comparative analysis

Mumtoz adabiyot – xalqning ko‘p asrlik ma’naviy, estetik va ilmiy tafakkurini aks ettiruvchi, badiiy jihatdan yuksak darajaga erishgan adabiy merosdir. Ushbu davr adbiyotida nafaqat ma’naviyat yoki madaniyat, balkim tarix ham shakllanadi. Tarix esa xalqlarning rivojlanish bosqichlari, ayniqsa adabiyotning muhim o‘rnini namoyon qiladi.

Mumtoz adabiyot – barcha janrlarning dastlabki bosqichi sifatida qaralib, adabiyotdagi janrlar aynan mumtoz adabiyotda sinaladi. Adabiyot urf-odatlar, qadriyatlar va o‘tmishni shakllantiruvchi omil bo‘lib, fors, arab tillari esa ushbu jarayonni bosqichma bosqich yuksaltiradi. Mazkur tillar o‘zbek mumtoz adabiyotining dastlabki poydevori bo‘lib, o‘zining bejirimligi bilan ajralib turgan.

Mumtoz adabiyotimiz tili va uslubini arabcha so‘zlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek klassik matnlarida arabcha o‘zlashmalarning tutgan o‘rni va vazifalari bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi:

1. Diniy-tasavvufiy va falsafiy tushunchalarni ifodalash

Mumtoz adabiyotimiz negizida islom falsafasi va tasavvuf ta’limoti yotadi. Diniy, huquqiy hamda tasavvufiy istilohlkarning deyarli barchasi arab-fors tilidan kirib kelgan:

Fano فناء(yo’q bo’lish)

Ma’rifat معرفة (tanib-bilish)

Haqiqat حقيقت (chinlik)

Baqo بقاء (abadiylik)

Tavakkul توكل (suyanish,topshirish)

Sabr صبر (chidam, matonat)

2. Badiiy tasvir va poetik bezak

Arab-fors so‘zlari mumtoz she’riyatda (g‘azal, qasida, ruboiy) g’oyat nazokatli badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qilgan:

Tashbeh va istiora: mahbubaning husni yoki xarakterini tasvirlashda arab-fors so‘zlari estetik jilvakorlik bag‘ishlagan(husn, jamol, ro‘y, xumor)

Tazod : badiiy matn bo‘yoqdorligini oshirgan(shox-gado, oftob-moh, javon-pir, boqiy-foniy, shodi-g‘am)

3. Aruz vazni talablarini bajarish

Aruz she’r tizimi qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlarning ma’lum tartibda takrorlanishiga asoslanadi. Turkiy so‘zlarning barchasida bo‘g‘inlar asosan bir xil uzunlikka ega bo‘lgani uchun shoirlar va vazn ritmini (bahrlarni) aniq saqlashda arab va fors so‘zlarning bo‘g‘in tuzilishidan unumli foydalanishgan.

هر كيمكه وفا قيلسه وفا كوركوسيدور

هر كيمكه جفا قيلسه جفا كوركوسيدور

ياخشى كشى كورمادى يامانليغ هرگز

هر کیمکه یامان بولسه یامان کورکوسیدو

Har kimki vafo qilsa, vafo ko‘rgusidir,
Har kimki jafa qilsa, jafa ko‘rgusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmadi yamonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, yamon ko‘rgusidir.

(Zahriddin Muhammad Bobur)

آن مایه زنده که در این بحر روان
بر خاست دمی تا که شود راز عیان
چون محرم رازی به جهان کس نیافت
آمد به همان جای که آمد به جهان

On mayayi zinda ki dar in bahri ravon,
Bar xast dami to ki shavad roz ayon.
Chun mahrami roze ba jahon kas nayaft,
Omad ba hamon joy ki omad ba jahon.

(Ma'nosi: Bu oquvchi hayot dengizidan bir nafasga sirlarni ochish uchun qalqib chiqqan jon, jahonda biror sirdosh topolmagach, yana kelgan joyiga qaytib ketdi).

(Umar Xayyom)

4. Ilmiy, siyosiy va ijtimoiy leksikani kengaytirish

Tarixiy, ilmiy va davlat boshqaruviga oid asarlarda (“Boburnoma” ,“Shohnoma”, “Zafarnoma”, “Tarixi muloqot”) terminologik aniqlik arab so‘zlari orqali erishilgan:

Misol: amaldor (عاملدار) muallim (معلم) hukm(حكم) adolat(عدالت) saltanat(سلطنه)

5. Matnga ulug’vorlik va baland ruh bag’ishlash

Badiiylik faqat shakl go‘zalligida emas, balkim g‘oyaning go‘zalligida ham ko‘rinadi. Mumtoz asarlarda komil inson go‘oyasi, insonparvarlik, vafodorlik, sabq-qanoat, adolat va ilohiy ishq kabi xislatlar aynan arab-fors so‘zlari bilan beriladi. Bunga sabab esa, arab-fors so‘zlarida ushbu xislatlar bejirim va ko‘rkam so‘zlar bilan ifodalanadi. Didaktik va falsafiy mushohadalar badiiy bo‘yoqlar bilan shunday bezatiladiki, u quruq o‘git bo‘lmay, san’at asariga aylanadi.

Odob – boshning tojidir - Adab toji sar ast (عدب تجي ساراست)

Do‘st tanlashda xushyor bo‘l - xushyor (هشيار)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Vohidov, H.Eshonqulov “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” O‘zbekiston Yozovcbilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nasbriyoti Toshkent — 2006
2. Mallayev N.M . O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent:
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. I-tom , Toshkent: «Fan», 1976
4. Ziyouz.com
5. BuxDu.com